

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIY – IQTISODIYOT FAKULTETI

IJTIMOIY ISH KAFEDRASI

IQTISOD YO'NALISHI

3 - KURS

REFERAT

**MAVZU: : *JAMIYATNING RIVOJLANISHIDA QADRIYATLARNING O'RNI
VA ROLI***

Bajardi: Sayfiev M.

Tekshirdi: ass. Aliqulov M.

Samarqand – 2016 yil.

***Mavzu: JAMIYATNING RIVOJLANISHIDA QADRIYATLARNING O'RNI VA
ROLI***

Reja:

I. Kirish

II. Asosiy qism

- 1. Jamiyatdagi o'zaro ijtimoiy aloqadorlik qadriyatlar.***
- 2. Ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy mavqye (status), ijtimoiy sanksiya va ijtimoiy rol tushunchalari.***
- 3. Ma'naviyat ijtimoiy tizim sifatida.***

III. Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Kirish

Jamiyat – kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo'lib, o'z tuzilishi jihatdan murakkab tizimni tashkil qiladi. Qadriyatlar bizning hozirda yashab turgan jamiyatimizni sosial tizimning muayyan konkret shakli sifatida, uning funksional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarining, sosial turlarining o'ziga xos tomonlarini, o'zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga egadir.

Chunki, o'z vaqtida keyingi oqibati oldindan sosiologik asosda tahlil qilinmagan va oldi olinmagan nuqsonlar jamiyat taraqqiyotida salbiy iz qoldiradi.

Bizning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'limiz respublikaning o'ziga xos turmush tarzini, shart-sharoitlari va xususiyatlarini, xalq an'analari va urf-odatlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanganligi sosiologik tadqiqotlarda o'z aksini topmog'i zarur.

Bu haqda qisman oldingi mavzuda tushuncha bergan edik, bu mavzuda esa nazariy ta'limotlarga tahlil beriladi. Sosiologiya tarixida jamiyat – o'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi sifatida tushunilgan. Shu bilan birga, jamiyat ayrim kishilarning birligigina emas, balki ijtimoiy munosabatlar majmuasi hamdir.

Sosiologiya jamiyat to'g'risidagi ta'limot bo'lib, ijtimoiy tizimlar rivojlanish va funksional qonuniyatlari, harakatlanuvchi kuchlarini o'rganuvchi fandır. U turli ijtimoiy hodisalar, jamiyat va tabiat o'rtasidagi aloqadorlikni, shuningdek, shaxs, kishilarining ijtimoiy hulqi, uning elementlari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Hozirgacha jamiyat hayotini sosiologik jihatdan tadqiq qilish, asosan, ikki yo'nalishda rivojlanib keldi. Birinchi yo'nalish O.Kontdan fransuz sosiologi E.Dyurkgeym orqali rivojlantirilgan amerikalik sosiolog T.Parsonslarning sosiologik ta'limotidir. Bu yo'nalishda ijtimoiy tizim o'zgarishi tashqi kuchlar ta'siri orqali tushuntirilib, ko'proq psixologik omillarga e'tibor berilgan.

Ikkinchi yo'nalish: marksistik sosiologik ma'limot bo'lib, bunda ijtimoiy tizim ichki ziddiyatlar asosida, ichki kuch ta'siri orqali tushuntirilib, materialistik mohiyatga ega bo'lgan moddiy munosabatlarning belgilovchi rolga asosiy e'tibor qaratilgan.

Ushbu mavzuni yoritishga biz har ikkala ta'limotning o'ziga xos tomonlarini, xususiyatlarini tushintirib ularning afzal va kamlik jihatlarini kitobxon e'tiboriga havola etamiz.

1. Jamiyatdagi o'zaro ijtimoiy aloqadorlik qadriyatlar.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi – ijtimoiy tizimlar va ularning elementlari o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar turini tashkil qilib, ijtimoiy munosabatlar mafkurasini ifodalaydi hamda turli ijtimoiy guruhlar, mehnat taqsimoti, ijtimoiy institutlar harakterini aks ettiradi.

Jamiyat, uning tizimlari o'ziga xos tarkibiy tuzilishga ega bo'lib ularning asosiy komponenti inson hisoblanadi. Kishilar ijtimoiy hayotning turli sohalarida – iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy, oila-turmushda faoliyat ko'rsatadilar. Ularning asosida ijtimoiy tarkiblar tuziladi. Ijtimoiy tizimlarning murakkabligi, tarkibidagi elementlarning soni ko'pligi bilan emas, asosan, bu elementlar o'rtasidagi o'zaro aloqa va munosabatlar harakteri bilan belgilanadi. Shuning uchun ham hozirda «Respublika barcha fuqarolari va yuridik shaxslarga tashabbus ko'rsatish va ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun ho'jalik faoliyatining qonun tomonidan man etilmagan barcha turlarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim»¹ - deb ta'kidlagan edi I.A.Karimov.

Ijtimoiy tizimlar zanjirida turli, o'ziga xos xalqaga ega bo'ladilar. Ichki tashkiliy tuzilishi, harakteri, funksional va rivojlanish darajasi, turmush tarzi faoliyat shakli va usullari bilan qadriyatlar tizim, norma g'oyalari, qarashlari va boshqa jihatlar bilan o'zaro farq qiladilar.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibini konkret tarixiy davr sistemasida olib qarash talab qilinadi. Chunki ko'pchilik tarixiy ijtimoiy tizim tarkibi o'zaro sifat va xususiyatlari bilan farq qiladi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibini sosiologik jihatdan o'rganishda uni uch ma'noda: eng umumiy, maxsus keng va xususiy tor ma'noda olib qarash zarur.

¹ И.А.Каримов. “Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура”. 65-бет.

Umumiy ma'nodagi ijtimoiy tarkib-jamiyatning bir butun tarkibini tashkil qiladi. Bu ijtimoiy tarkibning element sifatida jamiyatning ijtimoiy munosabatlariga mos tushuvchi iqtisodiyoti, siyosati, ideologiyasi kabi sohalar kiradi. Ikkinchi, maxsus, keng ma'nodagi ijtimoiy tarkibga ijtimoiy tarixiy birlik majmuasi va ular o'rtasidagi aloqa, munosabatlar kiradi. Bu tarkib milliy-etnik, ijtimoiy-demografik, mutaxassislik ixtisoslik va boshqa shu kabi sohalar kiradi.

Tor ma'nodagi ijtimoiy tarkib tushunchasiga mehnat jamoalari, hududiy birlik, nisbatan tez o'zgaruvchan guruhlar kiradi. Bozor munosabatlarining tarkib topishi jarayonida O'zbekiston ijtimoiy tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlarni yuqorida ko'rsatilgan uch metodologik bosqich bo'yicha sosiologik tadqiq qilish – asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

«Sosiologiyaning umumnazariy muammolari» asarida Amerikalik sosiolog Parsons, jamiyat tarkibiy tuzilishining funksional modelini ishlab chiqdi. Unga muvofiq, har qanday ijtimoiy tizim qo'yidagi to'rtta tarkibiy iyerarxik darajadan iborat:

1. «Birlamchi» yoki «texnik» daraja ijtimoiy tizim elementlarining bevosita aloqadorligini ifodalaydi.

2. Boshqaruv yoki «menedjerial» daraja, birlamchi darajadagi ijtimoiy tizimlar elementlarining o'zaro aloqadorligini tartibga solib turadi. Bu daraja tashqi tarkibiy aloqalar bo'g'inlari bilan munosabatlar o'rtasida vositachilik rolini bajaradi. Ijtimoiy tartibni nazorat qiladi, kuzatadi, kishilarning moddiy jihatdan ta'minotini boshqaradi.

3. «Instituti» daraja yanada umumiyroq masalalar bilan shug'ullanadi. Bunga boshqaruv, institutlar va rahbariyat, ma'muriy idora organlari, ularning vakillari kiradi.

4. Oliy darajadagi, umumdavlat darajasidagi jamiyat tashkilotlari. Bunga davlat hokimiyati, huquqiy va boshqa tashkilotlar kiradi. Ular quyi darajalar ustidan nazorat qiladi va ularni tartibga keltiradi. Parsons sosiologik maktab qarashicha, jamiyat funksional tizimlardan iborat. Bu maktab vakillari dinning jamiyat hayotidagi funksional ahamiyatiga ham yuqori baho berganlar. Din-jamiyatning «bir butun» holda bo'lishiga xizmat qiladi – deb, ateizmga jamiyatning bir butunligini buzuvchi nomutanosiblikni keltirib chiqaruvchi omil sifatida qarashgan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib aytish kerakki, jamiyat hayoti o'zining murakkab tuzilishiga ega bo'lganligini hisobga olib, uni faqat bir tomonlama asoslash kifoya qilmaydi. Ijtimoiy tarkibni empirik jihatdan sosiologik tadqiq qilishda psixologik ma'naviy, subyektiv, tarbiyaviy, ahloqiy milliy va boshqa yondashuvlar mushtarakligida olib qarash maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy hodisalar tarkibini sosiologik tadqiq qilishda hayotdan ajralib qolgan, mavhum, aniq mazmundan uzoqda bo'lgan umunazariy qarashlar konsepsiyalarni emas, balki uning barcha murakkab jihatlarini, tarkibiy tuzilishini, ijtimoiy shart-sharoitlarini, tarixiy vaqt va milliy xususiyatlarini, funksional va rivojlanish jarayonini hisobga olish zarur.

Sosiologiyada ijtimoiy birlik tushunchasi ham muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy birlik – deb tarixan shakllangan, nisbatan barqaror ijtimoiy aloqalar va munosabatlarga, o'ziga xos umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan kishilar birligiga aytiladi. Boshqa ijtimoiy tashkilot va institutlardan farq qilib, ijtimoiy birlik tabiiy va tarixiy jarayonda vujudga kelib, ongli kishilarning irodalariga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'ladi. Ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida obyektiv zarurat sifatida vujudga kelgan kishilarning ijtimoiy birligi xarakteri jamiyat ishlab chiqarish usuli harakteriga bog'liq bo'ladi va u bilan belgilanadi.

Buyuk mutafakkir yurtdoshimiz Abu Nasr Forobiyning kishilar ijtimoiy birligi to'g'risida bundan o'n bir asr muqaddam yozib qoldirgan qo'yidagi fikri diqqatiga sazovordir: «Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan kishilarni bir-birlariga yetkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishish uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rnamehdilar, natijada inson jamoasi vujudga keldi»².

Markaziy Osiyoning yana bir buyuk mutafakkiri Abu Rayhon Beruniy ham kishilarning ijtimoiy birligi to'g'risida fikr yuritib, shunday degan: «Hamma gap

² Абу Наср Фаробий. “Фозил одамлар шаҳри”. Т. А.Қодирий номидаги халқ маорифи нашриёти, 1993, 186-бет.

shundaki, inson, ehtiyojlarining ko'pchiligi va himoya vositalaridan mahrum bo'lganda chidamsizligi hamda dushmanlarning seroblighi orqasida o'zaro qo'llab-quvvatlash va har biri o'zini ham, boshqalarni ham ta'minlaydigan ishni qilish maqsadlarida o'z hamtavoqlari bilan jamiyat bo'lib birlashishga majbur bo'lgan edi»³.

Jamiyatning tarixiy rivojlanishi jarayonidan vujudga kelgan el-elat, qabila, urug', oila, jamoa kabi kishilarning ijtimoiy birligi ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishi va yangi ishlab chiqarish munosabatlarining tarkib topishi bilan xalq millat kabi ijtimoiy birliklarga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Bu jarayonda mehnat taqsimoti, aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralib chiqishi ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Yaqingacha ilmiy adabiyotlarda «sovet xalqi»-degan kishilarning yangi ijtimoiy birligi tarkib topganligi xususida ko'p yozilar edi. Sovet Ittifoqining parchalanib ketishi va mustaqil milliy respublikalarning vujudga kelganligi oqibatida bu ibora hayotda asosli bo'lmaganligi sababli o'z mohiyatini yo'qotdi. Chunki tabiiy-tarixiy jarayon natijasida emas, balki majburiy siyosiy tazyiq asosida tuzilgan bu ijtimoiy birlik tarixiy davr sinoviga dosh bera olmadi. «Sovet xalqi» iborasi ostida buyuk millatchilik ham ko'p sonli millat va elatlarni ruslashtirish siyosati ham yotar edi. Bu ibora ostida rus bo'lmagan millat va xalqlarning tili, urf-odatlarini, an'analari kamsitildi. Milliy qadriyatlarni, madaniyatni mensimaslik avj oldi.

Sosiologiyada ijtimoiy birlik tushunchasi ostida jamiyat ijtimoiy tarkibidagi barcha tizim va elementlarni tushunish mumkin. Ular o'zaro harakteri ijtimoiy ko'lami va jamiyat hayotida tutgan o'rni bilan farq qiladi.

Sosiologiyada jamiyat hayotini o'rganishda «ijtimoiy tashkilotlar», «institutlar» kabi ilmiy tushunchalardan ham foydalaniladi. Ijtimoiy tashkilotlar-kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar rivojining mahsuloti bo'lib, muayyan dastur yoki maqsadni bajarishga qaratilgan, belgilangan kishilar birliklaridir. Ijtimoiy tashkilotlar moddiy ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladi. Bu tushuncha keng ma'noda alohida kishilar va ijtimoiy guruhlarning faoliyatini boshqarish va tartibga solish usulini harakterlaydi. Ijtimoiy tashkilot tushunchasi, kishilar o'rtasidagi aloqadorlikning barcha soha va

³ Беруний. Таълиқланган асарлар, 3-том. Т. 1969, 83-бет.

darajalarini o'z ichiga oladi. Ijtimoiy tizim tomonidan ayrim individlar faoliyatini boshqarishni ta'minlaydi.

Tor ma'nodagi ijtimoiy tashkilotlar nisbatan barqaror va alohida kishilar guruhini o'z ichiga oladi. Uning aniq belgilangan maqsadi bo'lib, shu maqsadni amalga oshirish uchun faoliyat qiladi.

Hozirda jamiyatimiz hayotida bozor munosabatlarning asta-sekin tarkib topib borishi o'z navbatida boshqa barcha ijtimoiy munosabatlarda muayyan o'zgarishlarni keltirib chiqarishi tabiiy. Ayniqsa, bunday o'zgarishlar shaxs va uning jamiyat hayotidagi munosabatlarida yaqqol ko'rina boshlaydi. Hozirda shaxsning faolligi ijtimoiy mavqeyi ortmoqda.

Ijtimoiy mavqye (status) tushunchasi-alohida olingan bo'lib, bu inson yoki rivojlanish guruhning jamiyatda mavjud ijtimoiy tuzumda tutgan o'rni, egallab turgan mavqeyini ifodalaydi. Bu tushuncha orqali kishilarning ijtimoiy kelib chiqishi irqiy yoki o'zining harakati (ma'lumoti, ko'rsatgan xizmati) orqali erishgan darajasi o'rganiladi.

Jamiyat hayotini ilmiy tahlil qilish jarayonida, sosiologiyada ijtimoiy sanksiyalar tushunchasi muhim ahamiyatga ega. «Sanksiya» so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, qat'iy qaror ma'nosini anglatadi.

Ijtimoiy sanksiya deb, ijtimoiy guruh yoki tizimning individ xulqiga ijtimoiy normadan ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishiga nisbatan reaksiyasi tushuniladi. Ijtimoiy sanksiyalar deb jamiyat hayotini boshqarishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, shaxsning ijobiy hatti-harakati uchun rag'batlantirish yoki yomon, salbiy hatti-harakati uchun jazo berishi bilan ijtimoiy nazorat vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy sanksiyalar kishilarning muayyan ijtimoiy guruhlar tarkibida jamoa bilan birgalikda davomli faoliyat ko'rsatishni ta'minlaydi.

Alohida individ ta'sir etishning vosita va usuliga qarab jismoniy sanksiyami «kaltaklash, ozodlikdan mahrum etish, o'lim jazosi va boshqalar», iqtisodiy «mukofotlash, moddiy rag'batlantirish, jarima solish, mol-mulkidan mahrum etish va boshqalar) va ramziy (hurmat bildirish, izzat qilish, xayfsan e'lon qilish kabi) sanksiya turlari mavjud.

Agar ijtimoiy sanksiya avvaldan shakllangan (davlat qonunlarida, nizomlarida, qonunda va farmonlarida belgilangan) tartibda bo'lsa, formal yoki rasmiylashgan sanksiyalar deyiladi.

Salbiy (xibsga olish, jarima, xayfsan berish) va ijobiy (xizmat lavozimini ko'tarish, orden va faxriy yorliqlar bilan mukofotlash) sanksiyalar ijtimoiy guruhlar va kishilar faoliyatini muayyan tartibda boshqarishni ta'minlaydi. Rasmiy ijtimoiy sanksiyalar davlat tomonidan saylangan yoki tayinlangan mutasaddi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Norasmiy ijtimoiy sanksiyalar bexosdan, stixiyali yuzaga kelib, ijtimoiy tartibdan chetlashilganda ijtimoiy muhit (xizmatdoshlar, do'stlar, qarindosh-urug'lar, qo'ni-qo'shnilar va shu kabilar) tomonidan amalga oshiriladi.

Har bir kishi, shaxs ma'lum bir ijtimoiy guruhga, tizimga mansub bo'ladi. Shuning uchun, ijtimoiy sanksiyalar doimo shaxs faoliyati yo'nalishi, tartibi va obyekt o'rtasida bilvosita ta'sirda bo'ladi.

Hozirgi murakkab ijtimoiy rivojlanish jarayonida, bozor munosabatlariga o'tishdagi iqtisodiy qiyinchiliklar davrida sosiologiyada ijtimoiy sanksiyalarning yashirin (patent) oqibatlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Jinoyat sodir qilgan shaxs beriladigan jazodan qo'rqib o'z jinoyatini yashirish maqsadida, ongli ravishda yanada kattaroq, muthishroq jinoyatlarni sodir qilishi mumkin.

Ma'naviyat ijtimoiy tizim sifatida. Jamiyat hayotining muhim tomonlaridan biri ma'naviyat bo'lib, o'ziga xos ijtimoiy tizim sifatida tarkibiy tuzilishga egadir. Ijtimoiy hayotning ma'naviyat sohasi mazmuni, eng avvalo, mafkura, ahloq, san'at, din va ijtimoiy hayotning boshqa nomoddiy jihatlarida namoyon bo'ladi. Bu soha o'zining xususiyatlari bilan jamiyatning ijtimoiy – siyosiy tizimidan ham farq qiladi. O'zbek xalqi o'zining milliy mustaqilligiga erishganligi munosabati bilan jamiyatimiz ma'naviyat tizimida tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ishlab chiqarish munosabatlarining yangi iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati ma'naviy mazmun bilan to'ldirilmoqda. Bu sohada dunyoqarash muhim rol o'ynaydi.

Dunyoqarash – shaxs ma'naviyatining asosiy mazmunini tashkil qiladi. Jamiyatning ma'naviyat tizimi o'z tarkibiga siyosiy, huquqiy ong, ahloq, fan, falsafa, san'at, diniy ong, mafkuraviy qarashlar va boshqa qarashlarni qamrab oladi. Ularning har

biri ijtimoiy tarixiy faoliyatning muayyan tomonini tashkil qilib, ma'naviy oziq vositasi sifatida amal qiladi.

Ma'naviyat tizimi .yuqorida ko'rsatilganlar bilan cheklanmaydi. U yana boy mazmunga ega. Kundalik ong, ijtimoiy psixologiya, g'oya, mafkura va boshqa ma'naviy munosabatlar ham bu tarkibga kiradi. Ijtimoiy ong shakllari ma'naviyatda asosiy o'rin tutadi, mafkura esa yo'naltiruvchi kuchga ega bo'ladi.

Muayyan ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy munosabatlar asosida ma'naviy munosabatlar tarkib topadi. Shuning uchun ham inson ma'naviy dunyosining mazmuni juda murakkab bo'ladi. Shaxs ma'naviyati jamiyati ma'naviy, ahloqiy, hayoti, tizimning o'zagi, yuragi hisoblanadi.

Ma'naviyatni sosiologik jihatdan o'rganishda, ijtimoiy hayotda ayniqsa, milliy mustaqillikning hozirgi ilk rivojlanish bosqichidan shaxsning hissiy ehtiros darajasiga e'tibor berish muhim ahamiyatga ega. Chunki, unda shaxsning milliy Vatan tuyg'usi, xalq ishi uchun fidoiylilik, ijodkorlik, shijoat, kelajakka ishonch bilan qarash kabi yuzaga keltirish zarur bo'lgan yashirin kuchlar yotadi.

Mustaqil O'zbekiston milliy mafkurasining shakllanish ma'naviyat sohasida jiddiy o'zgarishlar yasashi aniq. Milliy istiqloq mafkurasida jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lgan madaniy merosimizga bo'lgan munosabatda ham katta o'rin tutadi. Madaniy, ma'naviy meros har qanday millat, xalqning ulkan xazinasidir. «Bu xazina insonga hayotda barqarorlik bag'ishlaydi, uning qarashlari shunchaki boylik ortirish yo'lida kun ko'rishga yo'l qo'ymaydi, fojialar vaqtida omon saqlab qoladi va moddiy qiyinchilik kunlarida irodani mustahkamlaydi»⁴.

Qadriyat tushunchasi ham falsafa va sosiologiyada keng qo'llanilib, ijtimoiy voqye'likning insoniy, ijtimoiy va madaniy ahamiyati tushuniladi. O'z mazmuniga ko'ra ijtimoiy qadriyatlar inson faoliyatining barcha xilma-xil predmetli faoliyatini aks ettiradi. Ular ijtimoiy regulyasiyaning yuqori darajasini anglatadi.

Ijtimoiy qadriyatlar tizimi jamiyatning tarixiy rivojlanishi davomida shakllanib, yanada rivojlanib, boyib boradi.

⁴ И.А.Каримов. “Ўзбекистоннинг шиз истиқлол ва тараққиёт йўли”. Т. “Ўзбекистон”, 1992 йил 72-бет.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlar qayta tiklana boshladi. Bu jarayon jamiyatning ma'naviy yuksalishida milliy istiqlol mafkurasi shakllanishida muhim o'rin tutadi.

G'arb va Amerika sosiologiyasida ijtimoiy tizimning muhitida «muvozanati»ni saqlashga asosiy e'tibor beriladi. O.Kont va Dyurgeym sosiologik qarashlariga asoslanib, jamiyatning bir butunligi uning «ijtimoiy muhitdagi doimiy muvozanati», ichki va tashqi ta'sirini muvofiqlashtirish-sosiologiyaning asosiy vazifasi qilib olgan. Umuman, ijtimoiy tizim tarkibidagi o'zgarish va integrasiya sifatidagi Parsonsning funksional sosiologik ta'limoti muvozanat to'g'risidagi nazariyadir. Marksizm sosiologiyasida esa ijtimoiy tizimlarning o'zaro ziddiyatlilik harakteri «muayyan muvozanatda og'ish» emas, balki ularning tarkibiy tuzilishi mohiyati qonuniyatli ichki rivojlanishning zaruriy natijasidir. Ijtimoiy tizimlar mohiyatini bunday tushinish-jamiyatda ichki ijtimoiy ziddiyatlar, sinfiy kurashlar ro'y berishini va ular jamiyat rivojining asosini, mohiyatini belgilashini anglatadi.

Marks va Engelsning «Hozirgacha o'tgan jamiyat tarixi sinflar kurashi tarixidan iboratdir» degan iborasi yuqoridagi fikrimizga dalil bo'ladi.

Hozirgi zamon sosiologiyasi qaysi ta'limotga asoslanadi?

Har ikki ta'limot ham jamiyat hayotidagi muhim belgilarni o'zida mujassamlashtirgan.

Sosiologik amaliyot funksional o'zgarishlarsiz, evolyusiyasiz revolyusiya tushunchasi bilan, funksional munosabatlar tahlilisiz ijtimoiy tizimlar rivojlanishini faqat ziddiyat va konfliktlar orqali asoslashga urinuvchi ta'limot jamiyat hayotini bir tomonlama o'rganishga olib kelishini ko'rsatmoqda.

Burjua sosiologiyasi nomi bilan atalgan g'arb sosiologik ta'limotida ham o'ziga xos ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, ijtimoiy tizimlar rivojlanishining ichki ziddiyatli xususiyatlarini hisobga olmaslik hamjamiyatni bir tomonlama tushunishni bildiradi.

«Jamiyat hayotining industrlashuvi obyektiv ravishda, qaysi ijtimoiy tizimlar bo'lishidan qat'iy nazar, ijtimoiy iyerarxiya bir xil tipiga olib boradi, - degan Amerika sosiologlarining fikri hozirgi tarixiy rivojlanish amaliyotida tasdiqlanmoqda. Ijtimoiy

hayot nisbatan mustaqil, barqaror funksional va rivojlanish qonuniyatlariga ega bo'lgan ijtimoiy tizimlar birligidan iboratdir.

Ijtimoiy tizim murakkab ichki tuzilishga ega bo'lib, tartibli, bir butun o'ziga xos ijtimoiy aloqadorlik va turli ijtimoiy munosabatlar birligini tashkil qiladi.

Ijtimoiy tizimlarning rivojlanishi tabiiy-tarixiy jarayon tarzida boradi. Har bir ijtimoiy tizim boshqasining, yukori darajadagi tizimi tarkibiga kiradi. O'zi esa quyi, kichik tartibdagi tizimlarni o'z tarkibiga oladi. Jamiyat hayotidagi biron bir ijtimoiy tizim alohida ravishda, boshqalaridan, ijtimoiy muhitdan ajragan holda yashay olmaydi.

Har bir ijtimoiy tizim o'zgarmas va abadiy emas. Ular tarixiy taraqqiyot davomida doimo o'zgarib, rivojlanib boradi. Ichki tashqi funksional va ziddiyatli munosabatda bo'ladi. Har qanday ijtimoiy tizim o'zining tarkib topib rivojlanish gullab-yashnash va tanazzuliga ega bo'ladi.

Ijtimoiy tizimlarga tarixiylik xos bo'lib, tarkibidagi element va mayda tizimlarning o'zaro aloqadorligi, ziddiyatliligi – ularning rivojlanish mohiyatini belgilaydi. Tashqi o'zaro aloqadorlik ham ijtimoiy tizimlararo munosabatlar asosini tashkil qiladi.

Alohida olingan inson va jamiyat hayotidagi barcha ijtimoiy jarayonlar tizimi o'rtasidagi munosabatlar o'zaro iyerarxik tuzilishga egadir. O'zaro iyerarxik tuzilish ularni boshqarish imkonini beradi.

- Ijtimoiy tizimlar maqsadga yo'llanganligini, moslashuvchi, ochiq o'zini qayta tiklash, funksional va rivojlanish kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir ijtimoiy tizim tashqi ijtimoiy muhit bilan doimiy aloqadorlikda bo'ladi. Kishilar ijtimoiy voqyelik, jarayonlar va g'oyalar ijtimoiy muhit elementlari sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi yangi ijtimoiy munosabatlarning tarkib topishi jarayonida ijtimoiy muhitni sosiologik jihatdan tahlil qilish masalasi muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

- Ijtimoiy tizimlar o'zlarining ijtimoiy vazifalari, funksiyalari bilan o'zaro farqlanadi. Ular muayyan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ahloqiy va boshqa qonuniyatlar asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Har qanday ijtimoiy tizimlarda ikki tipdagi: funksional va rivojlanish qonuniyatlari amal qiladi. Ularning funksional va rivojlanish xususiyatlari ikki omil-ichki va tashqi omillar bilan belgilanadi. Ichki omillarga birinchi navbatda tizim va uning

komponentlari, komponentlarining o'zaro munosabati kiradi. Tashqi omillarga ijtimoiy tizimlarning tashqi muhit bilan aloqadorligi kiradi.

Xulosa

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlar qayta tiklana boshladi. Bu jarayon jamiyatning ma'naviy yuksalishida milliy istiqlol mafkurasi shakllanishida muhim o'rin tutadi.

«Jamiyat hayotining industrlashuvi obyektiv ravishda, qaysi madaniy tizimlar bo'lishidan qat'iy nazar, Madaniy iyerarxiya bir xil tipiga olib boradi, - degan Amerika sosiologlarining fikri hozirgi tarixiy rivojlanish amaliyotida tasdiqlanmoqda. Madaniy hayot nisbatan mustaqil, barqaror funksional va rivojlanish qonuniyatlariga ega bo'lgan Madaniy tizimlar birligidan iboratdir.

Madaniy tizim murakkab ichki tuzilishga ega bo'lib, tartibli, bir butun o'ziga xos Madaniy aloqadorlik va turli Madaniy munosabatlar birligini tashkil qiladi.

Ijtimoiy tizimlarning rivojlanishi tabiiy-tarixiy jarayon tarzida boradi. Har bir ijtimoiy tizim boshqasining, yukori darajadagi tizimi tarkibiga kiradi. O'zi esa quyi, kichik tartibdagi tizimlarni o'z tarkibiga oladi. Jamiyat hayotidagi biron bir Madaniy tizim alohida ravishda, boshqalaridan, Madaniy muhitdan ajragan holda yashay olmaydi.

Har bir ijtimoiy tizim o'zgarmas va abadiy emas. Ular tarixiy taraqqiyot davomida doimo o'zgarib, rivojlanib boradi. Ichki tashqi funksional va ziddiyatli munosabatda bo'ladi. Har qanday Madaniy tizim o'zining tarkib topib rivojlanish gullab-yashnash va tanazzuliga ega bo'ladi.

Ijtimoiy tizimlarga tarixiylik xos bo'lib, tarkibidagi element va mayda tizimlarning o'zaro aloqadorligi, ziddiyatliligi – ularning rivojlanish mohiyatini belgilaydi. Tashqi o'zaro aloqadorlik ham Madaniy tizimlararo munosabatlar asosini tashkil qiladi.

Alohida olingan inson va jamiyat hayotidagi barcha Madaniy jarayonlar tizimi o'rtasidagi munosabatlar o'zaro iyerarxik tuzilishga egadir. O'zaro iyerarxik tuzilish ularni boshqarish imkonini beradi.

- ijtimoiy tizimlar maqsadga yo'llanganligini, moslashuvchi, ochiq o'zini qayta tiklash, funksional va rivojlanish kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir Madaniy tizim tashqi Madaniy muhit bilan doimiy aloqadorlikda bo'ladi. Kishilar madaniy voqyelik, jarayonlar va g'oyalar madaniy muhit elementlari sifatida namoyon bo'ladi.

Hozirgi yangi Madaniy munosabatlarning tarkib topishi jarayonida Madaniy muhitni sosiologik jihatdan tahlil qilish masalasi muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

- Madaniy tizimlar o'zlarining Madaniy vazifalari, funksiyalari bilan o'zaro farqlanadi. Ular muayyan iqtisodiy, Madaniy-siyosiy, ahloqiy va boshqa qonuniyatlar asosida faoliyat ko'rsatadilar.

Har qanday madaniy tizimlarda ikki tipdagi: funksional va rivojlanish qonuniyatlari amal qiladi. Ularning funksional va rivojlanish xususiyatlari ikki omil-ichki va tashqi omillar bilan belgilanadi. Ichki omillarga birinchi navbatda tizim va uning komponentlari, komponentlarining o'zaro munosabati kiradi. Tashqi omillarga Madaniy tizimlarning tashqi muhit bilan aloqadorligi kiradi.

madaniy tizimlarning tashqi muhit bilan o'zaro aloqadorligi ularning asosiy mavjudlik va yashash sharti hisoblanadi. Tashqi Madaniy muhit uvozanatini saqlash va o'zgarishini hisobga olish-Madaniy tizimlarning funksional o'zgarish va rivojlanishini sosiologik tadqiq qilishda birinchi darajali ahamiyatga ega.

Demak, sosiologiyada madaniy belgilarida ichki va tashqi jihatdan tahlil qilish maqsadga muvofiq. Jamiyatning moddiy ishlab chiqarish jarayoni sosiologiyada Madaniy tizim sifatida olib qarab o'rganiladi. Moddiy ishlab chiqarish tizimi-madaniy hayot sohasi bo'lib kishilarning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq. Moddiy ishlab chiqarish, ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlaridan tashkil topadi.

Siyosiy-tizim-jamiyatni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan tizim hisoblanadi. Bu tizim tarkibiga barcha siyosiy tashkilotlar: davlat, huquqiy organlar, siyosiy partiyalar, jamoa tashkilotlari va ular bilan bog'liq bo'lgan siyosiy munosabatlar kiradi.

Mustaqil O'zbekiston davlati siyosiy tizimini sosiologik jihatdan o'rganish siyosiy sohada qilinishi kerak bo'lgan yuqorida aytilgan asosiy vazifalardan kelib chiqadi. Bu haqda oldingi mavzuda to'xtalib o'tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. Toshkent, 1992, I-II bo'limlar, 16-17, 21-22 betlar.
2. Karimov I.A. «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li». Toshkent, 1992, 6-10 betlar.
3. Karimov I.A. «Istiqlol yo'li. Muammolar va rejalar». Toshkent, 1992
4. Karimov I.A. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q». Toshkent, 1998
5. «Taraqqiyot va hamkorlik yo'llarida». (O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi) Toshkent, O'zbekiston, 1993
6. Shayxova X, Nazarov K. "Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot". Toshkent, 1992
7. Bekmuradov M, «Sosiologiya asoslari». Toshkent «Fan» 1994
8. Yunusov K. «Sosiologiya» (o'quv qo'llanma). A-1997
9. Ma'ruza matni.